



*2023- yil yanvar-dekabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

# **QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
(75) 221-44-28*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 735586,5 ming AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 190173,1 ming AQSH dollariga yoki 34,9 % ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr oylarida ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: 735586,5 **+34,9 %**  
(2022- y.: 545413,4)




### Saldo

2023- y.: 116641,5  
(2022- y.: 56842,6)




### Eksport

2023- y.: 426114,0 **+41,5 %**  
(2022- y.: 301128,0)



### Import

2023- y.: 309472,5 **+26,7 %**  
(2022- y.: 244285,4)













**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 426114,0 ming AQSH dollariga (41,5 % ga ko‘paydi) va import hajmi 309472,5 ming AQSH dollariga (26,7 % ga ko‘paydi). Hisobot davrida 116641,5 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr oylarida ming AQSH dollari)









XXR	Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	BAA	Qozog‘iston
TSA – 209328,1	TSA – 103247,4	TSA – 99325,6	TSA – 44612,1	TSA – 32469,5
Eksport: 35184,7 Import: 174143,4	Eksport: 86200,0 Import: 17047,4	Eksport: 71020,8 Import: 28304,8	Eksport: 42404,6 Import: 2207,5	Eksport: 15603,7 Import: 16865,8
 28,5 %	 14,0 %	 13,5 %	 6,1 %	 4,4 %
Pokiston	AQSH	Tojikiston	Polsha	Latviya
TSA – 27420,2	TSA – 26478,4	TSA – 17788,6	TSA – 17525,3	TSA – 15944,9
Eksport: 25692,7 Import: 1727,5	Eksport: 23486,1 Import: 2992,3	Eksport: 16957,4 Import: 831,2	Eksport: 16356,8 Import: 1168,5	Eksport: 107,5 Import: 15837,4
 3,7 %	 3,6 %	 2,4 %	 2,4 %	 2,2 %

Qashqadaryo viloyati jahonning 78 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (28,5 %), Turkiyada (14,0 %), Rossiya Federatsiyasida (13,5 %), BAAda (6,1 %), Qozog‘istonda (4,4 %), Pokistonda (3,7 %) va AQSHda (3,6 %) qayd etilgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>XXR</b>		<b>111188,2</b>	<b>90797,6</b>	<b>209328,1</b>
	<i>Eksport</i>	32296,4	14691,1	35184,7
	<i>Import</i>	78891,8	76106,5	174143,4
<b>Turkiya</b>		<b>125159,7</b>	<b>139683,8</b>	<b>103247,4</b>
	<i>Eksport</i>	76106,8	108549,9	86200,0
	<i>Import</i>	49052,9	31133,9	17047,4
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>		<b>80590,7</b>	<b>92902,5</b>	<b>99325,6</b>
	<i>Eksport</i>	45656,0	64156,5	71020,8
	<i>Import</i>	34934,7	28746,0	28304,8
<b>BAA</b>		<b>1448,9</b>	<b>953,7</b>	<b>44612,1</b>
	<i>Eksport</i>	670,2	734,4	42404,6
	<i>Import</i>	778,7	219,3	2207,5
<b>Qozog'iston</b>		<b>35464,6</b>	<b>29011,7</b>	<b>32469,5</b>
	<i>Eksport</i>	15819,9	12476,3	15603,7
	<i>Import</i>	19644,7	16535,4	16865,8
<b>Pokiston</b>		<b>18884,4</b>	<b>16037,1</b>	<b>27420,2</b>
	<i>Eksport</i>	18515,6	15838,8	25692,7
	<i>Import</i>	368,8	198,3	1727,5
<b>AQSH</b>		<b>2087,6</b>	<b>4366,5</b>	<b>26478,4</b>
	<i>Eksport</i>	94,3	19,6	23486,1
	<i>Import</i>	1993,3	4346,9	2992,3
<b>Tojikiston</b>		<b>20115,8</b>	<b>6980,1</b>	<b>17788,6</b>
	<i>Eksport</i>	18943,2	4835,9	16957,4
	<i>Import</i>	1172,6	2144,2	831,2
<b>Polsha</b>		<b>6739,1</b>	<b>11064,5</b>	<b>17525,3</b>
	<i>Eksport</i>	5947,6	9330,0	16356,8
	<i>Import</i>	791,5	1734,5	1168,5
<b>Latviya</b>		<b>1646,1</b>	<b>784,1</b>	<b>15944,9</b>
	<i>Eksport</i>	68,8	477,3	107,5
	<i>Import</i>	1577,3	306,8	15837,4




	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Italiya</b>	<b>2691,0</b>	<b>2809,2</b>	<b>15237,7</b>
	<i>Ekspport</i>	100,4	723,8	12620,5
	<i>Import</i>	2590,6	2085,4	2617,2
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>12747,4</b>	<b>19161,6</b>	<b>14360,5</b>
	<i>Ekspport</i>	10165,8	15887,9	12685,4
	<i>Import</i>	2581,6	3273,7	1675,1
	<b>Misr</b>	<b>1494,7</b>	<b>2164,4</b>	<b>13061,9</b>
	<i>Ekspport</i>	1475,2	2163,3	13046,0
	<i>Import</i>	19,5	1,1	15,9
	<b>Vetnam</b>	<b>1442,5</b>	<b>3372,8</b>	<b>12211,5</b>
	<i>Ekspport</i>	857,3	3372,6	12084,4
	<i>Import</i>	585,2	0,2	127,1
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>9608,2</b>	<b>24067,2</b>	<b>9923,5</b>
	<i>Ekspport</i>	8255,8	15180,9	4486,0
	<i>Import</i>	1352,4	8886,3	5437,5
	<b>Hindiston</b>	<b>5141,0</b>	<b>12920,4</b>	<b>8475,4</b>
	<i>Ekspport</i>	3771,3	9083,3	5571,2
	<i>Import</i>	1369,7	3837,1	2904,2
	<b>Afg'oniston</b>	<b>12373,1</b>	<b>11403,4</b>	<b>8196,6</b>
	<i>Ekspport</i>	12333,8	11214,3	8121,2
	<i>Import</i>	39,3	189,1	75,4
	<b>Germaniya</b>	<b>12525,5</b>	<b>17741,7</b>	<b>6055,5</b>
	<i>Ekspport</i>	804,1	1315,4	259,0
	<i>Import</i>	11721,4	16426,3	5796,5
	<b>Yaponiya</b>	<b>2506,5</b>	<b>11961,0</b>	<b>4890,9</b>
	<i>Ekspport</i>	221,1	161,5	26,6
	<i>Import</i>	2285,4	11799,5	4864,3
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>4432,1</b>	<b>5158,4</b>	<b>4789,0</b>
	<i>Ekspport</i>	14,0	266,8	12,4
	<i>Import</i>	4418,1	4891,6	4776,6



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)\*

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari



25,8 %

**Qarshi sh. – 189487,9**

16,7 %

**Nishon – 122951,9**

16,1 %

**Kasbi – 118540,0**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

1,0 %

**Shahrisabz sh. – 7347,8**

1,0 %

**Muborak – 7468,0**

1,3 %

**Ko'kdala – 9367,0**

2022- y.


2023- y.

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Qarshi shahri 25,8 % ulush bilan 189487,9 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Shahrisabz shahri 1,0 % ulush bilan 7347,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 23,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga kamaygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan 51,1 % ga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 76,6 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra, 172035,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 115989,2 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 56046,0 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI *(2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)*

Rossiya – 57,7



Qozog'iston – 18,9



Tojikiston – 10,4



Qirg'iz  
Respublikasi – 5,8



Belarus  
Respublikasi – 2,3



Ozarbajjon – 1,5



Moldova  
Respublikasi – 1,3



Turkmaniston – 1,1



Ukraina – 0,8



Armaniston – 0,2




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (57,7 %), Qozog'iston (18,9 %) hamda Tojikiston (10,4 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 146013,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 93148,3 ming AQSH dollari, import hajmi esa 52864,8 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'rishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 213 taga yetdi va ular tomonidan 426114,0 ming AQSH dollari qiymatini hamda (2022- yilning mos davriga nisbatan 41,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-dekabr, oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>301128,0</b>	<b>426114,0</b>	<b>111,5</b>	<b>141,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	49178,8	58 690,5	105,8	119,3	16,3	13,8
Ichimliklar va tamaki	797,2	589,7	170,7	74,0	0,3	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	24097,4	30 645,8	144,2	127,2	8,0	7,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8657,9	85 344,2	33,1	9,9 m.	2,9	20,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	772,8	216,8	68,4 m.	28,1	0,3	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2970,5	1 852,4	28,6	62,4	1,0	0,4
Sanoat tovarlari	192581,9	227 005,4	123,2	117,9	64,0	53,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2808,9	4 931,4	5,0 m.	175,6	0,9	1,2
Turli xil tayyor buyumlar	13489,7	12 634,8	3,6 m.	93,7	4,5	3,0
Boshqa tovarlar	0,4	-	-	-	-	-
Xizmatlar	5772,5	4 203,0	63,0	72,8	1,9	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0 % ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (53,3 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (20,0 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI**  
(2023- yil yanvar-dekabr)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>58690,5</b>	<b>119,3</b>
Sabzavotlar va mevalar	49940,0	107,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8360,4	4,4 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	299,2	127,0
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	45,2	107,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	33,7	3,6 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	12,0	3,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>589,7</b>	<b>74,0</b>
Ichimliklar	588,5	73,8
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,2	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>30645,8</b>	<b>127,2</b>
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	21240,2	2,6 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	5641,9	64,4
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	3274,9	49,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	488,8	147,8
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>85344,2</b>	<b>9,9 m.</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	85298,5	49,3 m.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	45,7	0,7
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>216,8</b>	<b>28,1</b>
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	216,8	
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>1852,4</b>	<b>62,4</b>
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1314,8	45,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	433,1	48,7 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	53,7	162,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	31,4	-
Organik kimyo moddalari	17,4	71,0
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,0	-

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>227005,4</b>	<b>117,9</b>
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	225643,1	119,0
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	524,3	36,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	430,9	53,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	244,0	5,1 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	156,3	52,8
Rangli metallar	5,1	5,7 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,1	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,6	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>4931,4</b>	<b>175,6</b>
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	4693,9	180,4
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	144,5	131,4
Metallarni qayta ishlash mashinalari	50,8	-
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	34,1	37,9 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	8,1	10,6
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>12634,8</b>	<b>93,7</b>
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	11934,4	89,7
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	547,4	68,4 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	93,0	5,5 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	40,7	4,2 m.
Poyabzal	11,3	171,2
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	8,0	-
<b>Xizmatlar</b>	<b>4203,0</b>	<b>72,8</b>




O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,5 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, ming  
AQSH dollari, ulushi, % da)



 **■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari**  
2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, XXR, Pokiston, AQSH va Polsha kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 70,5 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)






## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-dekabr oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.
Turkiya	108549,9	86200,0	142,6	79,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	64156,5	71020,8	140,5	110,7	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	734,4	42404,6	109,6	57,7 m.	16	3
XXR	14691,1	35184,7	45,5	2,4 m.	6	4
Pokiston	15838,8	25692,7	85,5	162,2	4	6
Amerika Qo'shma Shtatlari	19,6	23486,1	20,8	1198,3 m.	18	7
Tojikiston	4835,9	16957,4	25,5	3,5 m.	11	5
Polsha	9330,0	16356,8	156,9	175,3	9	9
Qozog'iston	12476,3	15603,7	78,9	125,1	7	8
Misr	2163,3	13046,0	146,6	6,0 m.	14	11
Eron Islom Respublikasi	15887,9	12685,4	156,3	79,8	3	13
Italiya	723,8	12620,5	7,2 m.	17,4 m.	17	10
Vetnam	3372,6	12084,4	3,9 m.	3,6 m.	12	12
Afg'oniston	11214,3	8121,2	90,9	72,4	8	14
Hindiston	9083,3	5571,2	2,4 m.	61,3	10	16
Qirg'iz Respublikasi	15180,9	4486,0	183,9	29,6	5	15
Bangladesh	0,9	4452,1	-	4946,8 m.	19	18
Moldova Respublikasi	2402,2	2273,2	120,3	94,6	13	17
Marokash	-	2124,6	-	-	-	19
Ozərbayjon	1731,3	1950,0	2,8 m.	112,6	15	20



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)\*



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani 24,6 % bilan 104672,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri 0,9 % bilan 3636,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida 61589,1 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (32,5%), Rossiya (32,1 %), Qozog'iston (17,8 %) hamda Afg'oniston (5,1 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 49,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,3 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 11,5 % ni tashkil etdi.













## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Loviya</b></p> <p>19,1 mln. AQSH dollari</p> <p>6212,1 ming tonna</p> <p> 64,7 % ↑</p>	<p><b>Uzum</b></p> <p>9,0 mln. AQSH dollari</p> <p>7016,1 ming tonna</p> <p> 45,8 % ↓</p>	<p><b>Gilos</b></p> <p>2,9 mln. AQSH dollari</p> <p>1322,9 ming tonna</p> <p> 9,7 m. % ↑</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p>2,7 mln. AQSH dollari</p> <p>8292,0 ming tonna</p> <p> 2,5 m. % ↑</p>
<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p>2,2 mln. AQSH dollari</p> <p>15105,9 ming tonna</p> <p> 29,4 % ↑</p>	<p><b>Mosh</b></p> <p>1,2 mln. AQSH dollari</p> <p>677,8 ming tonna</p> <p> 4,0 m. % ↑</p>	<p><b>Olho'ri</b></p> <p>1,1 mln. AQSH dollari</p> <p>2130,2 ming tonna</p> <p> 84,3 % ↓</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p>1,1 mln. AQSH dollari</p> <p>1466,9 ming tonna</p> <p> 35,3 % ↓</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	3300,9	15968,4	32,6
 Rossiya	15493,8	15744,7	32,1
 Qozog'iston	34013,3	8715,1	17,8
 Afg'oniston	2272,7	2519,3	5,1
 Eron	1413,9	2198,4	4,5
 BAA	441,9	898,7	1,8
 Iroq	1395,0	783,8	1,6
 Turkiya	248,1	708,7	1,5
 Tojikiston	1520,1	599,0	1,2
 Turkmaniston	212,3	219,5	0,4
 XXR	291,5	200,2	0,4
 Belarus	212,4	111,5	0,2
 Saudiya Arabistoni	22,0	98,8	0,2
 Latviya	160,2	95,0	0,2
 Gruziya	96,4	62,5	0,1
 Boshqa davlatlar	494,6	143,3	0,3

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokiston to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 32,6 % ni), bu ko'rsatkich Gruziya eksport hajmidan 3,3 barobar ko'p.





## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.






Xususan, 2023- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo‘yicha 258806,7 ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 60,7 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 22,6 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (88,1 %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (9,6 %) asosiy ulushni egallagan.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollari)


	Jami	211106,6	258806,7
 Ip kalava		177878,4	228132,5
 Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari		30650,8	24959,4
 Trikotaj mato		1019,4	2582,4
 Gazlamalar		1558,0	3132,4
 Paypoq mahsulotlari		-	-

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 4203,0 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,0 % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 27,2 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (78,1 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (20,3 %) va safarlar (turizm) (1,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 309472,5 ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan 126,7 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (62,1 %) sanoat tovarlari (14,8 %), hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (6,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar- dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65187,1 ming AQSH dollariga kupaydi va 309472,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1847,4 ming AQSH dollariga yetdi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>244285,4</b>	<b>309472,5</b>	<b>82,6</b>	<b>126,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21425,1	19365,4	85,7	90,4	8,8	6,2
Ichimliklar va tamaki	-	33,7	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11322,9	7607,3	79,6	67,2	4,6	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9338,3	11414,0	116,2	122,2	3,8	3,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1297,7	981,1	173,2	75,6	0,5	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	26181,6	21891,7	108,2	83,6	10,7	7,1
Sanoat tovarlari	31803,0	45901,8	96,6	144,3	13,0	14,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	129014,4	192059,5	74,3	148,9	52,9	62,1
Turli xil tayyor buyumlar	8053,0	8370,6	117,3	103,9	3,3	2,7
Boshqa tovarlar	5019,8	-	55,4	-	2,1	-
Xizmatlar	829,6	1847,4	58,1	222,7	0,3	0,6



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>19365,4</b>	<b>90,4</b>
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7587,5	192,4
Tirik hayvonlar	5785,0	51,6
Sabzavotlar va mevalar	4920,1	105,8
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	548,3	57,4
Go'sht va go'sht mahsulotlari	429,0	2,9 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	91,9	91,9 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	2,3	64,2
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,2	0,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,1	-
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>33,7</b>	<b>-</b>
Ichimliklar	33,7	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>7607,3</b>	<b>67,2</b>
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	3041,3	92,2
Metall rudalari va metall parchalari	1914,9	77,1
Probka va yog'och-taxtalar	1317,5	43,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	537,5	27,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	398,3	79,2
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	394,7	10,0 m.
Tabiiy kauchuk	3,1	-
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>11414,0</b>	<b>122,2</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9253,3	103,2
Tabiiy yoki sun'iy gaz	2107,7	6,4 m.
Ko'mir, koks va briketlar	53,0	117,1
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>981,1</b>	<b>75,6</b>
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	981,1	75,6
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>21891,7</b>	<b>83,6</b>
Organik kimyo moddalari	6666,4	140,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	5047,2	115,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4992,3	55,9
O'g'itlar	1760,3	55,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1365,3	47,5
Noorganik kimyo moddalari	1037,7	71,5
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	482,2	3,3 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	371,3	90,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	169,0	136,8




XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>45901,8</b>	<b>144,3</b>
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	26115,4	2,5 m.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	7305,0	188,5
Cho'yan va po'lat	4681,1	51,4
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	3733,3	90,5
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1718,0	70,9
Rangli metallar	1226,6	133,3
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	695,4	197,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	424,2	76,8
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,8	59,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>192059,5</b>	<b>148,9</b>
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	95637,6	10,4 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	46778,0	75,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	19060,6	51,6
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	13073,7	165,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	8020,7	118,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	6397,9	3,6 m.
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	2363,8	83,4
Metallarni qayta ishlash mashinalari	522,5	48,3
Boshqa transport uskunolari	204,7	32,9
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>8370,6</b>	<b>103,9</b>
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4718,4	89,4
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1911,9	93,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	933,9	2,1 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	444,6	8,9 m.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	253,0	3,2 m.
Poyabzal	73,8	5,3 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	32,9	2,6 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	2,2	1,7


Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2023- yil yanvar-dekabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 18,1 % ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga kamaydi.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-dekabr, ming AQSH dollari, ulushi % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

 2023- yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati 64 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Koreya Respublikasi) jami importning 84,8 % ni tashkil etdi.



**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI** (2023- yil yanvar-dekabr oylari % da)





## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI


(yillar kesimida yanvar-dekabr oylari holati)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
XXR	76106,5	174143,4	96,5	2,3 m.	1	1
Rossiya Federatsiyasi	28746,0	28304,8	82,3	98,5	3	4
Turkiya	31133,9	17047,4	63,5	54,8	2	2
Qozog'iston	16535,4	16865,8	84,2	102,0	4	3
Latviya	306,8	15837,4	19,5	51,6 m.	18	5
Germaniya	16426,3	5796,5	140,1	35,3	5	6
Qirg'iz Respublikasi	8886,3	5437,5	6,6 m.	61,2	7	8
Yaponiya	11799,5	4864,3	5,2 m.	41,2	6	9
Koreya Respublikasi	4891,6	4776,6	110,7	97,6	9	7
Litva	1509,5	4041,8	123,2	2,7 m.	16	12
Amerika Qo'shma Shtatlari	4346,9	2992,3	2,2 m.	68,8	10	13
Hindiston	3837,1	2904,2	2,8 m.	75,7	11	10
Ekvador	362,3	2832,0	100,1	7,8 m.	17	11
Italiya	2085,4	2617,2	80,5	125,5	15	15
Belarus Respublikasi	6798,0	2256,7	3,0 m.	33,2	8	17
Birlashgan Arab Amirligi	219,3	2207,5	28,2	10,1 m.	19	14
Kanada	2489,8	2080,6	111,4	83,6	14	18
Pokiston	198,3	1727,5	53,8	8,7 m.	20	16
Eron Islom Respublikasi	3273,7	1675,1	126,8	51,2	12	19
Turkmaniston	2961,3	1554,0	72,3	52,5	13	20



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH doll.)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 54,1 % bilan 167534,4 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chiroqchi tumani 0,4 % bilan 1323,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr, ming AQSH dollarida)




2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1847,4 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,6 % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (63,4 %), ga tegishli bo'ldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 45901,8 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44,3 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 14,8 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-dekabr oylari ulushi, % da)

33963,8 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 74,0 %

4158,9 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 9,1 %

1535,7 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 3,3 %



XXR



Rossiya  
Federasiyasi



Turkiya

1308,3 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 2,9 %

955,8 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 2,1 %



Eron Islom  
Respublikasi



Hindiston



2023- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14098,8 ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- 33963,8 ming AQSH dollari (74,0 %), Rossiya Federasiyasi- 4158,9 ming AQSH dollari (9,1 %) va Turkiya – 1535,7 ming AQSH dollari (3,3 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.